



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI HOKIMINING
QARORI

Bandixon tumani Mustaqillik ko‘chasi. 1-uy.190300, tel.: (+99876)374-15-71, (bandixon.t@exat.uz,) doc.@sdv.uz

2022 года «18» мая

214-8-211-Q/22

Хокимият Бандихонского района

**Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni
davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21- bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, Bandixon tuman “Gulbog‘” mahallasi hududida joylashgan, “YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga **P172220309568-11** unikal raqam bilan kiritilgan 0,02 gektar bo‘sh yer uchastkasi Bandixon tuman hokimligi nomiga doimiy foydalanish huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Yer uchastkasi (lot) tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron auksionda realizatsiya qilish uchun qabul qilinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Bandixon tuman filiali (X.Allamurotov) ushbu qarorga muvofiq Bandixon tuman hokimligining yer uchastkalariga bo‘lgan doimiy foydalanish huquqini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Bandixon tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Sarmanov)ga ushbu yer

uchastkalarini ma'muriy-hududiy joylashuvidan va balans hududidan kelib chiqqan holda mulk huquqining minimal qiymatini belgilasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Mamatqulov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Choriyev O'. A.